

**KORPORATIV TUZILMALARNI QAYTA TASHKIL ETISH (QO'SHIB
YUBORISH, AJRATISH, BIRLASHTIRISH)DA YURIDIK XIZMAT
ISHTIROKINING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

Qodirov Muhammadyusuf Muhammadziyoxiddin o'g'li

Imomaliyev Sherozbek Alijon o'g'li

*Toshkent davlat transport universiteti yurisprudensiya yo'nalishi "Xalqaro ommaviy
huquq" kafedrasida 2-bosqich Yu-13 guruh talabasi.*

Bahriddin Imomov Panjiyevich

*Toshkent davlat transport universiteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrasida katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada korporativ faoliyatda yuridik xizmatning o'rni, uning asosiy funksiyalari va tashkilot samaradorligiga ta'siri tahlil etiladi. Shuningdek, yuridik xizmatning huquqiy risklarni kamaytirishdagi roli, korporativ boshqaruv tizimidagi ahamiyati va amaliy muammolari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida yuridik xizmatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *korporativ huquq, qayta tashkil etish, yuridik xizmat, huquqiy audit, huquqiy vorislik, kreditorlar huquqi*

Annatation. *This scientific article analyzes the role of legal services in corporate activities, their main functions, and their impact on organizational efficiency. It also examines the role of legal services in reducing legal risks, their importance in corporate governance, and existing practical issues. Based on the research findings, recommendations for improving legal services have been developed.*

Keywords: *corporate law, reorganization, legal service, due diligence, legal succession, creditors' rights.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируется роль юридической службы в корпоративной деятельности, её основные функции и влияние на эффективность организации. Также рассматриваются значение юридической службы в снижении правовых рисков, её место в системе корпоративного управления и существующие практические проблемы. По результатам исследования разработаны рекомендации по совершенствованию деятельности юридической службы.*

Ключевые слова: *корпоративное право, реорганизация, юридическая служба, правовой аудит, преемство, права кредиторов.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va boshqaruv samaradorligini ta'minlash maqsadida tijorat tashkilotlari o'z faoliyatini muntazam ravishda optimallashtirib borishga ehtiyoj sezadi. Xususan, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tarkibiy iqtisodiy islohotlar, xususiy mulk

daxlsizligini ta'minlash va qulay investitsiya iqlimini yaratish jarayonlari korporativ boshqaruv tizimini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu modernizatsiya jarayonida korporativ tuzilmalarni qayta tashkil etish - ayniqsa, qo'shib yuborish, birlashtirish va ajratish mexanizmlari korxonalar aktivlarini yiriklashtirish yoki ixtisoslashuvni chuqurlashtirishning muhim iqtisodiy-huquqiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, korporativ tuzilmalarni qayta tashkil etish oddiy iqtisodiy jarayon emas, balki mulkiy huquqlarning o'tishi, majburiyatlarning universal vorislik asosida taqsimlanishi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish kabi o'ta murakkab yuridik tranzaksiyalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar korxonalar aktivlarini qayta baholash, litsenziya va ruxsatnomalarni qayta rasmiylashtirish, shuningdek, minoritar aksiyadorlar (ishtirokchilar) hamda mehnat jamoasi huquqlarini kafolatlash kabi o'ziga xos huquqiy xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Aynan shu nuqtada korxonaning yuridik xizmati (yoki shartnoma asosida jalb qilingan tashqi yuridik maslahatchilar) ishtirokining ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda zamonaviy yuridik xizmat faqatgina yuzaga kelgan oqibatlarni bartaraf etish bilan emas, balki huquqiy xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilish va ularning oldini olish (proaktiv yondashuv) bilan shug'ullanishi lozim. Yuridik xizmatning qayta tashkil etish jarayonidagi faoliyati nafaqat ta'sis hujjatlarini rasmiylashtirish, balki ehtimoliy korporativ nizolarning oldini olish, soliq va monopoliyaga qarshi qonunchilik talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga qaratilgandir⁴².

Soha olimlari va amaliyotchilari tomonidan korporativ huquq masalalari keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, bevosita qayta tashkil etishning murakkab amaliy bosqichlarida (huquqiy audit - due diligence o'tkazish, topshirish dalolatnomalarini ishlab chiqish, davlat ro'yxatidan o'tkazish) yuridik xizmatning o'ziga xos o'rni, huquqiy vakolatlari va mas'uliyati masalalari hanuzgacha alohida, chuqur huquqiy tahlilni talab etadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - korporativ tuzilmalarni qayta tashkil etishda yuridik xizmat ishtirokining nazariy va amaliy huquqiy asoslarini tahlil qilish, amaliyotdagi mavjud xavf-xatarlarni aniqlash va jarayonni qonuniy ta'minlashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan aniq takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasiga asosan, yuridik shaxsni qayta tashkil etish asosan qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shakllarida amalga oshiriladi⁴³. Qayta tashkil etishning asosiy huquqiy oqibati - bu majburiyatlar bo'yicha huquqiy vorislikning yuzaga kelishidir. Aynan shu vorislik jarayonini qonuniy va xatosiz rasmiylashtirish korxonalar yuridik xizmatining eng muhim vazifasi sanaladi. Amaliyotda eng ko'p uchraydigan qayta tashkil etish shakllarida yuridik xizmat ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

⁴² <https://lex.uz/docs/-3098964> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 19.01.2017 yildagi PQ-2733-son

⁴³ <https://lex.uz/docs/111189> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси

Qo'shib yuborish - Bunda ikki yoki undan ortiq yuridik shaxslar o'z faoliyatini to'xtatib, ularning barcha huquq va majburiyatlari yangi tashkil etilgan bitta yuridik shaxsga o'tadi. Yuridik xizmat bu bosqichda barcha qo'shilayotgan korxonalarining qarz va majburiyatlarini tahlil qilib, "Topshirish dalolatnomasi" loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazishi shart.

Birlashtirish - Bunda bir yoki bir nechta yuridik shaxs boshqa bir faoliyat yuritib turgan yuridik shaxs tarkibiga kiradi. Bu holatda yuristning asosiy maqsadi qabul qiluvchi jamiyatning ta'sis hujjatlariga ustav fondining o'zgarishi munosabati bilan tegishli o'zgartirishlar kiritish hamda uni Adliya organlarida ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlashdir.

Ajratib chiqarish - Ajratish shaklida qayta tashkil etishda korxonaning o'zi tugatilmaydi, balki uning tarkibidan yangi yuridik shaxslar ajralib chiqadi. Bu holda huquq va majburiyatlarning bir qismi "Taqsimlash balansi" asosida yangi tuzilmaga o'tadi⁴⁴. Yuridik xizmat taqsimlash balansida majburiyatlarning adolatli taqsimlanishini nazorat qiladi.

Korporativ huquq doktrinasida qayta tashkil etishni sof fuqarolik-huquqiy bitim (shartnoma) yoki faqat muassislar irodasiga bog'liq bo'lgan korporativ akt sifatida talqin qiluvchi turli qarashlar mavjud. Biroq, huquqni qo'llash amaliyotida uni murakkab yuridik tarkib (yuridik faktlar kompleksi) sifatida e'tirof etish eng to'g'ri yondashuvdir. Chunki bu jarayon o'z ichiga shartnoma munosabatlarini, korporativ qarorlarni va davlat ro'yxatidan o'tkazish kabi ma'muriy aktlarni yaxlit holda qamrab oladi. Ushbu jarayonning eng asosiy belgisi - universal (umumiy) huquqiy vorislikning yuzaga kelishidir. Ya'ni, qayta tashkil etilayotgan korxonaning barcha huquq va majburiyatlari (hatto kelajakda yuzaga keladigan, nizo qilinayotgan yoki kreditorlarga ma'lum bo'lmagan qarzlarni ham) yagona kompleks sifatida huquqiy vorisga o'tadi⁴⁵. Bu o'tish jarayonida majburiyatlarni sun'iy ravishda qismlarga ajratish yoki qarzlarni uchun javobgarlikdan qochish mutlaqo mumkin emas.

Yuridik xizmat aynan shu universal vorislik tamoyili amalda buzilmasligining asosiy kafolati hisoblanadi. Amaliyotda "yaxshi va daromadli" aktivlarni yangi korxonaga o'tkazib, "yomon" qarzlarni tugatilayotgan korxonada balansida qoldirish orqali sun'iy bankrotlikka olib kelish xavfi mavjud. Yuridik xizmat bunday korporativ firibgarliklarning oldini olish uchun "Topshirish dalolatnomasi" va "Taqsimlash balansi" kabi hujjatlarni qat'iy huquqiy ekspertizadan o'tkazadi hamda majburiyatlarning to'liq va adolatli aks etishini ta'minlaydi.

Yuridik xizmatning asosiy funksiyalari. Korporativ tuzilmada yuridik xizmat quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: shartnoma ishi (tayyorlash, tahlil qilish, ijrosini nazorat qilish); majburiyatlarning buzilishini oldini olish (kontragentlarni tekshirish, shartnoma shartlariga rioya etilishini monitoring qilish); nizolarni hal qilish (da'vogarlik, sudgacha va sud tartibidagi ishlarni yuritish); mahalliy hujjatlar ishlab chiqish (nizom, korporativ kodeks, ichki tartiblar); huquqiy monitoring (qonunchilikdagi o'zgarishlarni kuzatish)⁴⁶. Korporativ tuzilmalarni qayta tashkil etishda yuridik jarayonlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida

⁴⁴ Saidov A. Korporativ huquq asoslari. – Toshkent: Adolat, 2022. – 120-bet.

⁴⁵ Gulyamov S.S. va boshq. Korporativ huquq. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2020. – 184-b.

⁴⁶ Saidov A. Korporativ huquq asoslari. – Toshkent: Adolat, 2022. – 280 b.

xorijiy tajribani o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xususan, kontinental huquq tizimiga kiruvchi Germaniya va Fransiya qonunchiligida yuridik xizmatning roli bizdagidan ancha keng va qat'iy javobgarlik asosida belgilangan.

Germaniya korporativ huquqida qayta tashkil etish jarayonlari maxsus "Qayta tashkil etish to'g'risida"gi qonun (*Umwandlungsgesetz - UmwG*) bilan tartibga solinadi. Nemis modelining o'ziga xos xususiyati shundaki, qo'shib yuborish yoki ajratishda faqatgina korporatsiyaning ichki yuridik xizmati xulosasi bilan cheklanib qolinmaydi. Qayta tashkil etish shartnomasi va unga ilova qilinadigan barcha taqsimlash hujjatlari majburiy tartibda mustaqil tashqi auditorlar hamda malakali yuristlar (huquqiy auditorlar) tomonidan chuqur ekspertizadan o'tkazilishi shart⁴⁷. Ushbu huquqiy auditning maqsadi - kreditorlar va minoritar aksiyadorlarning mulkiy huquqlarini kafolatlashdir. Agar huquqiy tekshiruv davomida majburiyatlar yashirilgani aniqlansa, jarayonga mas'ul bo'lgan yuristlar kreditorlar oldida to'g'ridan-to'g'ri javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu amaliyot korporatsiya boshqaruvi va fuqarolik muomalasi ishtirokchilari o'rtasida kuchli muvozanatni saqlaydi.

Fransiya Tijorat kodeksiga (*Code de commerce*) asosan esa, qayta tashkil etishda yuridik xizmat ishtirokining yana bir muhim qirrasini - ijtimoiy huquqlarni himoya qilishdir. Fransuz ijtimoiy-huquqiy modeliga ko'ra, yuridik bo'lim qayta tashkil etish (masalan, *fusion* yoki *scission*) jarayonini boshlashdan oldin xodimlar vakillarini (Ijtimoiy va iqtisodiy qo'mita - CSE) majburiy ravishda xabardor qilishi va ular bilan huquqiy maslahatlashuvlar o'tkazishi belgilangan⁴⁸. Ya'ni, yuridik xizmat nafaqat tijorat, balki mehnat jamoasi va kasaba uyushmalari kabi fuqarolik jamiyati institutlari manfaatlarini buzilmasligini huquqiy jihatdan ta'minlaydi. Agar yuridik xizmat ushbu ijtimoiy-huquqiy tartib-taomilni chetlab o'tsa, butun qayta tashkil etish jarayoni sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston milliy qonunchiligida ham aynan qayta tashkil etish jarayonlarida yuridik xizmatning nafaqat tijorat manfaatlarini, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini oshirish muhimdir. Bu borada Yevropa davlatlaridagi majburiy "huquqiy audit" institutlarini va fuqarolik jamiyati institutlarining korporativ qarorlar qabul qilinishidagi ishtirokini milliy qonunchiligimizga kengroq implementatsiya qilish amaliy jihatdan o'zini oqlaydi. Qayta tashkil etish jarayonida yuridik xizmatning amaliy ishtiroki (Due Diligence va kreditorlar kafolati). Korporativ tuzilmalarni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng, yuridik xizmat jarayonning amaliy ijrosini ta'minlashga kirishadi. Bu bosqichda yurist shunchaki hujjat tayyorlovchi emas, balki butun jarayonning xavfsizligini ta'minlovchi strategik nazoratchi va huquqiy tahlilchi vazifasini o'taydi. Jarayon quyidagi o'ta muhim huquqiy harakatlarni talab etadi:

⁴⁷ Umwandlungsgesetz (UmwG) in der Fassung der Bekanntmachung vom 28. Oktober 1998 (BGBI. I S. 3242). § 8. Prüfung der Verschmelzung.

⁴⁸ Code de commerce (Fransiya Tijorat kodeksi). Article L236-1 va undan keyingi moddalar. (www.legifrance.gouv.fr).

Kompleks huquqiy audit (Legal Due Diligence) o'tkazish: Qayta tashkil etishdan oldin yuridik xizmat ishtirokchi korxonalarining huquqiy "portretini" tahlil qilishi shart. Bu jarayonda yurist quyidagilarga alohida e'tibor qaratadi:

Shartnomaviy majburiyatlar: Mavjud barcha xo'jalik shartnomalarini xatlovdan o'tkazish va ulardagi "nazoratning o'zgarishi" (change of control) bandlarini tahlil qilish. Agar shartnomada qayta tashkil etish vaqtida kontragentni xabardor qilish yoki shartnomani bekor qilish huquqi bo'lsa, yuridik xizmat bu risklarni oldindan hisobga olishi lozim.

Sud va ijro ishlari: Davom etayotgan sud nizolari, ehtimoliy da'volar va ijro ishlari bo'yicha moliyaviy yo'qotishlarni baholash. Bu ma'lumotlar keyinchalik "Topshirish dalolatnomasi"da aniq aks etishi shart.

Aktivlar va litsenziyalar: Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar, intellektual mulk ob'ektlari hamda davlat tomonidan berilgan litsenziya va ruxsatnomalarning vorisga o'tish mexanizmlarini tahlil qilish. Ba'zi litsenziyalar qayta tashkil etishda o'z kuchini yo'qotishi mumkinligini inobatga olgan holda, yurist ularni qayta rasmiylashtirish rejasini tuzadi.

Kreditorlar huquqlarini kafolatlash va protsessual tartiblar: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 53-moddasiga muvofiq, qayta tashkil etish jarayonida kreditorlar manfaati ustuvor hisoblanadi⁴⁹. Yuridik xizmat ushbu jarayonda quyidagilarni ta'minlaydi: Har bir kreditorga qayta tashkil etish haqida alohida yozma xabarnoma yuborilishini nazorat qilish. Ommaviy axborot vositalarida (masalan, "Birja" gazetasi yoki maxsus elektron portallar orqali) tegishli e'lonlar berilishini tashkil etish. Kreditorlar tomonidan majburiyatlarni muddatidan oldin bajarish yoki zararni qoplash haqidagi talablar kelib tushsa, ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish va muzokaralar olib borish. Yuristning asosiy vazifasi - kreditorlar bilan nizolarni sudgacha bo'lgan bosqichda hal qilib, qayta tashkil etish jarayonining to'xtab qolmasligini ta'minlashdir.

Davlat organlari bilan hamkorlik va monopoliyaga qarshi nazorat: Yirik korporativ tuzilmalar qo'shib yuborilganda yoki birlashtirilganda bozorda raqobat muhiti buzilishi xavfi yuzaga keladi. Shuning uchun yuridik xizmat "Raqobat to'g'risida"gi qonun hujjatlariga asosan, monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish uchun zaruriy tahliliy hujjatlar to'plamini tayyorlaydi⁵⁰. Shuningdek, jarayon yakunida ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlarni Davlat xizmatlari markazlari hamda Soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazishni to'liq huquqiy kuzatuvga (legal support) oladi.

Korporativ tuzilmalarni qayta tashkil etish amaliyotini o'rganish va mavjud huquqiy bazani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yuridik xizmat faoliyatida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Eng asosiy muammo - ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlarda yuridik xizmatning jarayonga faqat yakuniy bosqichda, ya'ni hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtida texnik xodim sifatida jalb qilinishidir. Bunday "formal" yondashuv natijasida yurist

⁴⁹ <https://lex.uz/docs/111189> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси

⁵⁰ <https://lex.uz/uz/docs/-6518381> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son

aktivlar va majburiyatlarning taqsimlanishidagi iqtisodiy xavflarni, shuningdek, shartnomaviy majburiyatlarning huquqiy oqibatlarini chuqur baholash imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Ayniqsa, ajratib chiqarish va bo'lish jarayonlarida "yaxshi" aktivlarni (ko'chmas mulk, daromadli texnikalar) yangi tuzilmaga o'tkazib, barcha qarzdorlik va majburiyatlarni (kreditorlik qarzlari, soliq majburiyatlari) eski korxonada qoldirish holatlari ko'p uchraydi. Bu amaliyotda kreditorlarni aldash yoki "fiktiv bankrotlik" (soxta bankrotlik) holatlarini yuzaga keltirish orqali majburiyatlardan qochishga urinish deb baholanishi mumkin. Amaldagi qonunchilikda yuridik xizmat xodimlarining moliyaviy-huquqiy hujjatlar bo'yicha mustaqil huquqiy audit o'tkazish vakolati va uning natijalari bo'yicha rahbariyat oldidagi javobgarligi aniq belgilanmagani ularning profilaktik ta'sir kuchini cheklab qo'ymoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va korporativ boshqaruvda huquqiy xavfsizlikni hamda investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi qonunchilik takliflarini ilgari suramiz: Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 50-moddasiga (Topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansi) quyidagi mazmundagi maxsus norma (qo'shimcha) kiritish zarur: *"Topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansi qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning yuridik xizmati yoki shartnoma asosida jalb qilingan yuridik maslahatchi tomonidan majburiy huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi va ularning ijobiy xulosasi olinishi shart"*. Ushbu o'zgartirish kreditorlar oldidagi majburiyatlarning yashirilishiga to'siq bo'ladi va yuridik xizmat xulosasi uchun shaxsiy mas'uliyatni oshiradi. Ikkinchidan, qayta tashkil etish jarayonida yuridik xizmat tomonidan o'tkaziladigan "Legal Due Diligence" (huquqiy audit) natijalari bo'yicha yagona va standartlashtirilgan hisobot shaklini tasdiqlash lozim. Ushbu hisobotni korporativ qarorlar qabul qilish jarayonining majburiy tarkibiy qismi sifatida belgilash orqali, muassislar va boshqaruv organlarining har bir harakati huquqiy jihatdan asoslangan bo'lishiga erishiladi. Bu esa o'z navbatida, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli korporativ nizolarning va iqtisodiy sudlardagi da'volarning sonini keskin kamaytiradi. Uchinchidan, yuridik xizmat xodimlarining malaka talablariga korporativ huquq va moliyaviy audit asoslari bo'yicha maxsus ko'nikmalarni kiritish lozim. Bu yuristga nafaqat qonun matnini o'qish, balki taqsimlash balansi ortidagi huquqiy xavflarni tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqorida amalga oshirilgan ilmiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, korporativ tuzilmalarni qayta tashkil etish jarayoni nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi, balki murakkab yuridik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda mulkiy huquqlarning o'tishi, majburiyatlarning universal huquqiy vorislik asosida taqsimlanishi hamda kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar huquqlarining ta'minlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois qayta tashkil etishning qonuniyligi va barqarorligi bevosita yuridik xizmat faoliyatining samaradorligiga bog'liq.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy sharoitda yuridik xizmatning roli an'anaviy "hujjat rasmiylashtiruvchi" funksiyadan ancha kengayib, strategik ahamiyat kasb etmoqda. U qayta tashkil etishning barcha bosqichlarida - dastlabki qaror qabul qilishdan tortib, davlat

ro'yxatidan o'tkazishgacha bo'lgan jarayonda huquqiy xavfsizlikni ta'minlovchi asosiy subyekt sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, huquqiy audit (due diligence), topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansini ekspertizadan o'tkazish, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalar yuridik xizmat zimmasiga yuklatilgan eng muhim funksiyalar hisoblanadi.

Shu bilan birga, amaliyotda yuridik xizmatning jarayonga yetarli darajada jalb etilmasligi, uning vakolat va javobgarlik doirasining aniq belgilanmaganligi, shuningdek, huquqiy audit mexanizmlarining normativ jihatdan mustahkamlanmaganligi qator tizimli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ayrim hollarda majburiyatlarni yashirish, kreditorlar huquqlarini buzish yoki sun'iy bankrotlik holatlarining yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Xorijiy tajriba, xususan Germaniya va Fransiya modellari shuni ko'rsatadiki, qayta tashkil etish jarayonida majburiy huquqiy audit joriy etilishi, mustaqil yuridik ekspertiza instituti rivojlantirilishi hamda ijtimoiy manfaatlar (xodimlar huquqlari)ni himoya qilish mexanizmlarining kuchaytirilishi korporativ boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida yuridik xizmatning qayta tashkil etish jarayonidagi rolini kuchaytirish, uning huquqiy xulosasini majburiy element sifatida belgilash, shuningdek, huquqiy auditni standartlashtirish zaruriyati mavjud. Bu choralar korporativ munosabatlarda shaffoflikni ta'minlash, huquqiy xavflarni minimallashtirish va investitsiya muhitining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/-3098964> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 19.01.2017 yildagi PQ-2733-son
2. Saidov A. Korporativ huquq asoslari: darslik. - Toshkent: Adolat, 2022. – 280 b.
3. <https://lex.uz/docs/111189> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси
4. Gulyamov S.S. va boshq. Korporativ huquq. Darslik. - T.: TDYU nashriyoti, 2020. – 184-b.
5. Code de commerce (Fransiya Tijorat kodeksi). Article L236-1 va undan keyingi moddalar. (www.legifrance.gouv.fr).
6. <https://lex.uz/uz/docs/-6518381> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son